

PARRANDACHILIK ETTI XAZINANING BIRI SIFATIDA DUNYO NIGOHIDA

T.J.Kichikov, G.P.To'xtayeva, X.Sh.Tursunov, M.F.Mirzomurotov

*"TIQXMMI" milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish
instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada parrandachilikning dunyoda tutgan o'рни va bu sohada innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirib, tuxum va go'sht yetishtirish, ayniqsa O'zbekiston sharoitida tuxum yo'nalishidagi parranda zotlarini hamda krosslarini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Parrandachilik, parranda go'shti, tuxum, innovatsion texnologiya, parranda zotlari, parrandalarni oziqlantirish, parrandalarni boqish va asrash, parrandalarni dunyoda tutgan o'рни, parrandachilikni istiqbollari.

ПТИЦА В ГЛАЗАХ МИРА КАК ОДНО ИЗ СЕМИ СОКРОВИЩ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль птицеводства в мире и развитие на основе инновационных технологий в этой области производства яиц и мяса, особенно в условиях Узбекистана, развитие яичных пород и скрещиваний птиц.

Ключевые слова. Птицеводство, птицеводство, яйценоскость, инновационные технологии, породы птицы, кормление, разведение и содержание птицы, роль птицы в мире, перспективы птицеводства.

Poultry farming as one of the seven treasures in the eyes of the world

National Research University" TIQXMMI " Bukhara Institute of Natural Resource Management

T.J.Kichikov, G.P.To'xtayeva, X.Sh.Tursunov, M.F.Mirzomurotov

Annotation. This article examines the role of poultry farming in the world and the development of egg and meat production based on innovative technologies in this field, especially in Uzbekistan, the development of egg breeds and bird crosses.

Keywords. Poultry farming, poultry farming, egg production, innovative technologies, poultry breeds, feeding, breeding and keeping of poultry, the role of poultry in the world, prospects of poultry farming.

Hozirgi kunda Mustaqil O'zbekistonning aholisi jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Aholini ekologik va biologik xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda parandachilik sohasining o'рни beqiyosdir. Ekologik toza hamda biologik xavfsiz go'sht va tuxum etishtirishda Qishloq xo'jaligida parrandachilik yetakchi tarmoqlardan biri sanaladi. Xalqimiz tili bilan aytganda parranda yetti xazinaning biri. Tahlilchilarning fikricha, bugungi kunda jahonning yetakchi davlatlarida bu sohaga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki aynan parrandachilik aholini parranda g'shti va tuxum mahsulotlari bilan ta'minlanishida asosiy ahamiyat kasb etib, qishloqlarda odamlarning ish bilan band bo'lishiga hissa qo'shadi. Parrandachilikni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirib tan-narxi arzon ma'sulot etishtirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Mahsuldorligi. Ma'lumki, jahonda go'sht maxsulotlari orasida yetishtirish va iste'moli bo'yicha parranda go'shti ikkinchi o'rinda turadi. Iste'mol qilinayotgan go'shtning 34 foizi parranda go'shti hissasiga to'g'ri keladi. AQSHda esa parranda go'shti iste'moli o'tgan asrning 70 yillaridan boshlab birinchi o'ringa chiqib oldi. Ekspertlarning fikricha, 2020-yilga borib jahonda parranda go'shti birinchi o'ringa chiqib oladi. Shu sababli ham parranda go'shtining xavfsizligi va samaradorligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Parrandachilik bo'yicha bugungi kunda Xitoy, AQSH, Yaponiya va Rossiya oldingi o'rinlarni egallab turibdi. Ayni damda jahonda 1 trillion 360 mingta tuxum, 296 million tonna parranda go'shti yetishtiriladi. Bu borada hissasi 40 foizni tashkil qilgan Xitoy birinchi o'rinda tursa, ikkinchi o'rin AQSHga nasib qilgan. O'tgan asrning 90-yillarida "osmon osti mamlakati" to'rtinchi o'rinni egallab turardi, mamlakatda o'tkazilgan keng qamrovli islohatlar tufayli birinchi o'ringa chiqib oldi. Bunday samaraga erishish yo'lida parrandachilik rivoji uchun maxsus guruhlar tashkil etildi. Bu guruhlar sohadagi barcha muammolarni aniqlab, ularni belgilangan vaqtda hal qildi. Xitoyda o'tkazilgan islohatlar tufayli parrandachilik rivojlandi. So'nggi 30 yil mobaynida parrandachilik taraqqiy etgani bois milliy iqtisod yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Aholi ish bilan ta'minlandi. Qishloq aholisining turmush sharoiti yaxshilandi, daromadlari ko'paydi. Bu bilan mamlakat nafaqat yer shari aholisining beshdan birini tashkil qiluvchi o'z aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minladi, balki jahon qishloq xo'jaligi rivoji va oziq-ovqat xavfsiligi ta'minlanishiga katta ulushini qo'shdi.

Bugungi kunda jahon mamlakatlari ekologik toza va to'yimli mahsulotlar ishlab chiqarishga harakat qilmoqda. Parrandachilik esa agrosanoat majmuasida yetakchi tarmoqlardan biri ekani tan olinadi. Insoniyat oldida turgan oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun albatta parrandachilikni rivojlantirishdek masala kun tartibiga chiqmoqda. Bu maqsadlarga erishish uchun kompleks yondashuv lozim.

Dunyoda parrandachilik. Tarixdan ma'lumki, Xitoy, Misr, Hindiston, Qadimgi Rim va Markaziy Osiyo mintaqasida parrandachilik qadim-qadimdan rivojlangan. Hindistonda eramizdan avvalgi 3 ming yillikda parrandachilikka asos solingan bo'lib, aynan shu yerdan boshqa mamlakatlarga tarqalgani aytiladi. Xonadonlarda tovuq, o'rdak va g'oz boqish Osiyo va Yevropada bir necha ming yillardan beri ananga bo'lib kelgan. Kurka ilk bor Amerikada xonakilashtirilib, keyinchalik Yevropaga olib kelingani aytiladi. "Ko'xna qita"da tovuq va boshqa parrandalarni boqish XVIII asr so'nggida Fransiya, Gollandiya va Angliyada yo'lga qo'yilgan.

Parrandachilikda go'sht yetishtirish borasida tovuqchilik va kurkachilik oldingi o'rinlarda turadi. Bu borada yetishtirilgan parranda go'shtining uchdan bir qismi AQSH hissasiga to'g'ri keladi. AQSHda parrandachilik kichik fermer xo'jaliklarida tovuq boqish bilan boshlangan. Tovuqchilikka 1880-yilda asos solingan bo'lishiga qaramay, 1950-yilga qadar go'sht va tuxum yetishtirish keng

qamrovli soha sifatida ko'rilmagan. "Okean orti mamlakati"da 1940-yili 143 million jo'ja bo'lgan bo'lsa, sohaga qaratilgan etibor tufayli 1950-yilga kelib jo'jalar soni 631 millionga yetdi. 1960-yilda jo'jalar soni bir milliarddan oshib ketdi. 1996-yilda amerikalik fermerlar 7 milliarddan ortiq broyler jo'jalarini yetkazib berdi. Ayni damda Amerikada parranda boqish o'ziga xos moddaga aylangan. Har bir xususiy xonadonning parranda boqishga moslashgan o'ziga xos tovuqxonalari bor.

Deyarli barcha mamlakatlarda tovuqchilik rivojlangan. Bugungi kunda nafaqat qishloqlarda, balki shaharlarda ham parrandachilik bilan shug'ullanayotgan kishilarni uchratish mumkin. Xonadonlarida tovuq asosan tuxum uchun boqiladi. Rossiyada ham parrandachilikka katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq parranda maxsulotlari asosan aholining ichki ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lib, yaqin yillardan beri yaqin xorijiy mamlakatlarga eksport qilinmoqda. 2016-yilda Rossiyaning parranda maxsulotlari uzoq xorij mamlakatlarini ham zabt eta boshladi. Bu degani import kamayganidan dalolat beradi.

Parrandalar nafaqat go'shti, tuxumi balki pati uchun ham boqiladi. Bugungi kunda parrandachilik istiqbolli va chorvachilikdagi asosiy yo'nalish ekani tan olinadi. Buning sabablardan biri parrandalarni saqlash uchun inshootlarning oddiy bo'lishidir. Buning ustiga oilaning daromad manbai bo'lmish parrandachilik juda qiziqarli, oson va foydali sohadir.

Parrandachilikda tovuqchilik birinchi o'rinda tursa, ikkinchi o'rin g'ozchilikka berilgan. Buning bir qator sabablari bor. Tovuqni har qanday sharoitda boqish mumkin. G'oz esa mavsumga qarab boqiladi. Buning uchun albatta suv xavzalari kerak bo'ladi. G'ozlar vafodorligi bilan ajralib turadi. Tarixdan ma'lumki, g'ozlar Rimni qutqargan. Qo'riqchilikda g'ozlar itlardan aslo qolishmaydi. Uyingizga begona odam kirsas, albatta "g'ag'-g'ag'"lab ovoz chiqarishadi. G'ozlar asosan go'shti uchun boqiladi. Arzon va shu bilan birga sifatli g'oz go'shti da'vo ekani aytiladi.

G'ozlar bilan birga o'rdaklarga qiziquvchilar ham bor. Kurka ham yil sayin ommalashib bormoqda. Uning go'shti parhez ekani ma'lum. Kurka maxsulotlari yetishtirish bo'yicha AQSH birinchi o'rinda turadi. Undan keyingi o'rinlar Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya va Germaniyaga nasib qilgan. Kurkalarni yopiq inshootlarda boqib bo'lmaydi. Tovuqlardan farqli ravishda ular ochiq havoni yaxshi ko'radi. Parrandachilikda kurkalar hovli ko'rki sifatida ko'riladi.

Xalqimiz bedana go'shti va tuxumini sevib iste'mol qiladi. So'nggi yillarda nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda bedanachilikka ham katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Yaponiyada 200-yildan beri bedanalarni ko'paytirish yo'lga qo'yilgan. Mutaxassislarining fikricha, bedanalarni ko'paytirishga sarflangan harajatlarni ko'p o'tmay o'zini oqlaydi. Bedanalar quyonlarga qaraganda uch barobar tez ko'payar ekan. Bedana tuxumi kichik bo'lishiga qaramay, ayni damda sotilishi bo'yicha tovuq tuxumi bilan raqobatlashga olish darajasiga yetib keldi. Har kuni bitta bedana tuxumini

iste'mol qilgan kishining immuniteti mustahkam bo'lishi aniqlangan. Uning tuxumidan bir qator kasalliklarni davolashda foydalaniladi. Bedana tuxumini uzoq vaqt saqlash mumkin. Biroq tuxum beruvchi bedananing o'zini bir yildan ortiq saqlab bo'lmaydi. Shuning uchun tuxum beruvchi bedanalarni tez-tez almashtirib turish kerak. Bedananing go'shti foydali ekani ma'lum.

Matbuotimizda ayrim tumanlarda tuyaqushlar boqilayotgani xaqida o'qib qolamiz. Mamlakatimizda tuyaqushchilik mustaqillik yillarida yo'lga qo'yildi. Vatani Afrika bo'lishiga qaramay tuyaqushlar O'zbekiston iqlimiga o'rganib qoldi va ko'plab ishqibozlar ortirdi. Ayni damda tuyaqushlar tuxumiga qiziqish ortib bormoqda. Mamlakatimizda Qora Afrika strauslari boqilmoqda. Parrandaning bu turi 50 yil yashaydi. Kamida 30-35 yil tuxum beradi. Strauslar juda ham mehribon va qiziquvchan bo'lib o'z egalariga tez o'rganadi. Tuyaqush fermasiga ega bo'lganlar nafaqat go'shti va tuxumidan foyda ko'rishlari, balki qiziquvchilarni strauslarni ko'rsatish maqsadida ekskursiya uyushtirishlari ham mumkin. Tuyaqushning bitta tuxumidan tayyorlangan quymoqni 8-10 kishi iste'mol qilishi mumkin.

Tuxum yetishtirish bo'yicha eng yirik korxonalar Shimoliy va Janubiy Amerikada joylashgan. Bu xaqda World's Top Poultry Companies Xisobotida ta'kidlanadi. Tuxum yetishtiruvchi eng yirik 25ta kompaniyaning 14tasi AQShda joylashgan. Lotin Amerikasida tuxum yetishtirish borasida Meksika birinchi o'rinda turadi. Osiyoda esa Yaponiya va Malayziya tuxum yetishtiruvchi korxonalar soni bo'yicha yetakchilik qiladi. Zamonaviy parrandachilik fermalarida nafaqat go'sht va tuxum yetishtiriladi, balki yarim tayyor mahsulotlar ham tayyorlanadi.

O'zbekistonda parrandachilik. Rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonni har tomonlama rivojlantirib rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi uchun ilm fanning eng so'nggi yangiliklari bilan rivojlantirishni taqqazo etadi. Hozirgi kunda tuxum yo'nalishidagi parrandachilikni rivojlantirish hamda yangi zot va krosslardan foydalanish tan - narxi arzon ekologik xavfsiz mahsulotlar bilan bozor talabiga mos parranda mahsulotlari bilan ta'minlashni kafolatlaydi.

Tadqiqotlarimiz Buxoro viloyati, Qorovulbozor tumanida joylashgan Parranda eksport savdo MCHJ da tuxum yo'nalishidagi Germaniyadan keltirilgan Loman sendi va loman Braun tovuqlarining bir biridan farqi organilib ta'lil qilindi. Loman sendi tovuqlari 10 ta tuxum kamroq beradi keyin vazni ham yengilroq bo'ladi Loman braun ozgina semizroq bo'ladi shu bilan bir qatorda har kuniga Loman sendi tovuqlari Loman braunga qaraganda ozroq ratsion asosida yem va ozuqa istemol qiladi. Tuxumi sarg'ish rangda bo'ladi o'zining rangi oq qanotlarini tepasida qora do'g'lari bo'ladi tuxumlari boshida maydaroq bo'ladi 7,8,9,10 oylik bo'lganida tuxumlarini o'zi sekin sekin kattalashib boradi. Loman sendi tovuqlari uy sharoitida boqish va ferma sharoitida boqish farqlari shundan iboratki Uy sharoitida 3-4 yil tuxum beradi ferma sharoitida esa 2-2.5 yil tuxum beradi. Uy sharoitida boqilganda uy sharoitiga moshlash uchun

birinchi sotib olgan tovuqni atroflari yopiq deraza va havo yo'llari bor joyga saqlash kerak bo'ladi havo yamonlashganda shamol bo'lganda tashqariga chiqarib bo'lmaydi bir ikki oy keyinchalik o'zlari shu sharoitga o'rganib qoladi. O'zlari kattaka kirishni bilmasa kattaka kirgizib yuborish kerak boshida bir ikki kun kirgizib yuborsa o'rganib qoladi. Lomon Braun unday emas Lomon sendidan ko'ra ertaroq uy sharoitiga moslashadi ular qo'rqqoq bo'lmagani tufayli uy sharoitiga bir oy yoki bir yarim oy vaqt ketadi odatda L.S tovuqlari 120-125 g yem yiydi yem narxi 4200 so'mdan 60000 so'mgacha bo'ladi. Hozirgi kunda 120-130 kunli tovuqlarga 4000-4500 yem yaxshi foyda beryapti. Tovuqlarni yemlarini hamma yem honadan olsa bo'ladi bitta joydan olgan yem yaxshi chiqsa har doim osha joydan olish tavsiya beriladi. Agar yemlarni har hil joydan olsa bir xil chiqmasligi mumkin yem yomon chiqsa birinchi navbatta tuxumiga yomon tasir qiladi. Tuxumlarni po'stlog'i yupqalashib boradi agar shunda ham e'tiborsizlik qilib borilsa kalibalizim kasaligi kelib chiqadi kalibalizim vitamin yetishmovchiligidan kelib chiqadi. Kalibalizimga uchraganda Lomon sendi tovuqlari umuman tuxum yo'nalishidagi barcha tovuqlarni qorong'uroq joyga qamash kerak bo'ladi qamagandan so'ng vitaminlari D-E vitaminlarga boy bo'lgan maxsulotlardan berish kerak bo'ladi. Shundan so'ng uzog'I bilan 1-2 oyda o'ziga keladi. Tovuqlarni birinchi sotib olgan vaqtda yemlarni ham qayerdan olish kerak ekanligini ham so'rab olish kerak bo'ladi. Hamma tovuqlarni olib ketish vaqtida kasallikka uchrashi mumkin sababi havo almashish jarayoni bo'ladi shuning uchun tovuqlarni suviga oddiy asprindan solib berish kerak bo'ladi shunda kasallikka chalinmaydi. Lomon sendi tovuqlarini narxi hozirgi kunda 65000 ming so'mdan 90-100 kunlikdan oshgan tovuqlar sotilyapti 100-kunlikdan o'tgan tovuqlar 75000 ming so'mdan sotilyapti. Lomon sendi tovuqlari hozirgi kunda Samarqand viloyatida ishlab chiqarilyapdi.



1-rasm.

Lomon braun tovuqlari

Lomon sendi tovuqlari

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni qo'llab quvatlash va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida tuxum yo'nalishidagi parrandalarni rivojlantirish va har tomonlama ko'proq daromad olish, innovatsion texnologiyalarni joriy etib tan-narxi arzon mahsulotlar etishtirish, yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, qo'shimcha ishchi o'rinlari barpo etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rustam Qurbonov "PARRANDACHILIK SIRLARI" (Uy parrandalari - tovug'i, o'rdak, g'oz, kurka parvarishlash va tuxum yetishtirish). ISBN 978-9943-395-90-9. «Meriyus» nashriyoti Toshkent – 2013.
2. Intensiv Parrandachilikda innovatsion yondashuv "Parrandachilik fermalarini samarali boshqarish bo'yicha qo'llanma" Toshkent-2021.
3. I.Y.Hoshimov, B.M.Tojiboyev "Qishloq xo'jalik chorva mollarini oziqlantirish" Darslik, Toshkent "O'zbekiston" 2001.
4. Maqsudov I, Jo'rayev J. "Chorvachilik asoslari". O'quv qo'llanma, Toshkent-2012.
5. J.Ya.Jo'rayev, I.Maqsudov, "Chorvachilik asoslari". "Chorvachilik asoslari" (ma'ruzalar matnlari). Samarqand-2007.
6. T.H.Ikromov. "Chorvachilik asoslari" Darslik, "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2001.
7. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУҒОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
8. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
9. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKTRANLI EGATLARDAN G 'O 'ZANI SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
10. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОВАРНИКОВ. JURNALI, 176
11. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
12. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.
13. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
14. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
15. Khudaeu, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309
16. Фазлиев, Ж. Ш. (2017). Боғларда томчилатиб суғориш технологияси. Интернаука, (7-3), 71-73.
17. Худайев , И., & Тожиев , Ш. (2023). БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ

ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/220>

18. Фазлиев Жамолиддин, Тожиев Шерзод, & Холиқов Шарифбек. (2024). СПОСОБЫ ЭКОНОМИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В САДАХ. Uz-Conferences, 1(1), 520–525. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/110>

19. J.Sh.Fazliev., Sh.M.Tojiev., Sh.D.Khalikov. (2024). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. Uz-Conferences, 1(1), 504–509. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/107>

20. I.J.Xudayev, I.J.Xudayev, & Sh.M.Tojiyev. (2024). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKTRANLI EGATLARDAN G‘O‘ZANI SUG‘ORISH TEXNOLOGIYASI. Uz-Conferences, 1(1), 514–519. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/109>

